

NIKOLAY ANDREYEVICH KISLYAKOV HAYOTI VA UNING
ILMIY FAOLIYATIGA NAZAR

Chorshanbiyev Boyto'ra Chori O'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu tezisda atoqli etnograf Nikolay Andreyevich Kislyakovning hayot yo'li va Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlari etnografiyasini o'rganish jarayonida qilgan ishlari ko'rib chiqiladi. Olimning Markaziy Osiyo hududlarida yashovchi aholi haqidagi tadqiqotlari, shuningdek, o'etnografiyaga oid ilmiy qarashlari ko'rib chiqiladi. Kislyakovning dala tadqiqotlari asosida to'plagan etnografik materiallari o'lka xalqlarining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-madaniy hayotini o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: N.A. Kislyakov, **Sankt-Peterburg**, L.P. Potatsov, K.D.Zadxina M.V. Sazonova, V. V. Bartold, I.I. Zarubin, pedagogik faoliyat, etnografiya, Markaziy Osiyo, **Garm**, **Tavildara** oila, nikoh, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik.

Nikolay Andreyevich Kislyakov haqida gap ketganda, uning Markaziy Osiyo hududidagi tub joy xalqlarining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-madaniy hayotini o'rganishga katta hissa qo'shgan etnograf sifatida yodga olishimiz mumkin, lekin uning o'z hayotining bir qismini Markaziy Osiyo hududida o'tkazgani va bu orqali yerli xalq hayotini tubdan o'rganish imkoniyatiga ega bo'lganligini ilm-fan uchun katta fidoiylik sifatida bilishimiz mumkin.

N. A. Kislyakov **1901-yil 11-dekabrda Sankt-Peterburgda tug'ilgan**. Uning oilasi haqida turlicha ma'lumotlar mavjud: biri dvoryan oilasida, boshqasida esa harbiy xizmatchi oilasi tug'ilgani keltirib o'tiladi. U 1922–1925-yillarda Qizil Armiya safida xizmat qilgan vaqtida ham ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga harakat qilib, savod o'rgatish bilan shug'ullangan. N. A. Kislyakov

pedagogik faoliyatini keyinchalik ham davom ettirdi va 1927-yilda Leningrad davlat universiteti geografiya fakultetining etnografiya bo'limiga o'qishga kirdi.¹ Universitetda tahsil olish davomida, ilmiy amaliy faoliyatini yulga qo'yish uchun Tojikistonning tog'li² hududlariga yo'lga tushadi, va u yerda dala tadqiqotlari orqali qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Qadimdan Markaziy Osiyo hududida turli tuman urf-odatlariga ega bo'lgan xalqlarining yashaganligiga ko'plab dalillar mavjud va ularning yashash tarzi ham rang barangdir. Bundan tashqari oilaviy munosabatlar va ijtimoiy tuzilishida juda ko'p o'zgarishlar bilan birgalikda o'xshashlikni ham ko'rishimiz mumkin.

Ushbu davr oila va nikoh munosabatlari haqida etnograf L.P. Potatsov, M.V. Sazonova, K.D.Zadxina va N.A. Kislyakov tadqiqotlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.³ O'tgan asr mobaynida siyosiy hayotdagi o'zgarishlar bu hududda yashovchi insonlarning yashash tarziga bevosita ta'sir o'tkazdi. N.A. Kislyakovning olib borgan ishlari orqali aniq va dalillarga asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Uning XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid ilmiy amaliy ishlar alohida ahamiyatga ega. Mazkur davrda mintaqa xalqlarining an'anaviy xo'jaligi, oilaviy munosabatlari, urf-odatlari va ijtimoiy tuzilishida muhim o'zgarishlar yuz bergan. Ushbu jarayonlarni o'rganishda N.A. Kislyakovning ilmiy merosi muhim o'rin egallaydi.

N.A. Kislyakov ilmiy faoliyati davomida Tojikistonning tog'li hududlarida yerda nafaqat o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullandi, balki **Garm va Tavildara** ⁴hududlaridagi xalq ta'limi bo'limlariga rahbarlik qildi, maktablar tarmog'ini tashkil etish, maktab binolarini qurish va jihozlash, mahalliy o'qituvchilar malakasini oshirish kabi ko'plab ishlarni amalga oshirdi.

¹ Кисляков Н.А. Советская этнография, 1974 стр.186-189.

² Кисляков Н. А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX — начале XX в. — М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1962. — 170 с

³ Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. — Л.: Наука, 1969. стр.10.

⁴ Николай Андреевич Кисляков // Советская этнография. — 1974. — № 3. — С. 186–187.

Bu Tojikistonning tog'li hududlarida Sovet hokimiyati mustahkamlanayotgan, aholining xo'jaligi hali ko'p jihatdan natural shaklda bo'lgan va turmush darajasi sodda bo'lgan davr edi. Ana shunday sharoitda Nikolay Andreyevichning tog'li Tojikiston aholisini savodxonlikka jalb etish, shaharlardan uzoqda joylashgan hududlarda yangi madaniyatning dastlabki asoslarini yaratishga qaratilgan mehnati katta ahamiyatga ega bo'ldi.

N. A. Kislyakov tojiklarning **xo'jalik faoliyati va moddiy madaniyatiga** ham katta e'tibor qaratgan. U dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning turli shakllariga bag'ishlangan bir qator original tadqiqotlar yaratdi.⁵ Uning ishlarida shaxsiy kuzatuvlar va o'zining dala tadqiqotlari davomida to'plagan materiallari asosiy o'rin egallaydi.

N. A. Kislyakov tojiklarning turli mahalliy guruhlarini etnografiyasini o'rganishga ham katta hissa qo'shdi. Uning rahbarligida SSSR Fanlar akademiyasining Antropologiya va etnografiya muzeyida saqlanayotgan **Zarafshon tojiklariga oid materiallar** qayta ishlanib, nashrga tayyorlandi. Ushbu materiallar 1926–1927-yillarda V. V. Bartold va I. I. Zarubin boshchiligidagi O'rta Osiyo etnologik ekspeditsiyasi tomonidan to'plangan edi.⁶

Ushbu materiallarning muhim qismi keyinchalik **O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining tarixiy-etnografik atlasini** tayyorlashda foydalanildi. N. A. Kislyakov ushbu yirik ilmiy ishning rahbarlaridan biri va tahrir hay'ati a'zosi bo'lgan hamda **«Dehqonchilik»** kabi muhim bo'limga mas'ul bo'lgan.⁷

Xulosa qilib aytganda, Nikolay Andreyevich nafaqat yirik olim, balki inson sifatida ham katta hurmatga ega bo'lgan. Uni doimo **xushmuomalaligi, boshlovchi olimlarga yordam berishga tayyorligi, hamkasblariga e'tiborli va mehribon munosabati** ajratib turgan. Bu fazilatlarini uni tanigan barcha insonlarning chuqur va samimiy hurmatiga sazovor qilgan. Uning ko'plab do'stlari bo'lgan. Ular

⁵ Кисляков Н. А. Старинные приемы земледельческой техники и обряды, связанные с земледелием, у таджиков бассейна реки Хингоу // Советская этнография. — 1947. — № 1. — С. 108–125.

⁶ Кисляков Н.А. «Сайробские таджики», Советская этнография, 1974 стр.17–27

⁷ Бакиев Рузибек Усмонович. «Вклад Н. А. Кислякова в изучение истории и этнографии Таджикистана» — tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi, mutaxassislik 07.00.02 — Отечественная история. Dushanbe, 2016. - 34-35bet.

Kislyakovni nafaqat yuqori malakali tadqiqotchi, balki tabiatan kamtar va muloyim bo'lishiga qaramay, ilm-fan va hayotda, ayniqsa umrining so'nggi yillarida, prinsipiiallik va jasorat ko'rsatgan inson sifatida qadrlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кисляков Н. А. Некоторые материалы по этнографии исфаринских таджиков // Известия Отделения общественных наук Академии наук Таджикской ССР. — 1954. — Вып. 5.
2. Кисляков Н. А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX — начале XX в. — М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1962.
3. Бакиев Рузибек Усмонович. «Вклад Н. А. Кислякова в изучение истории и этнографии Таджикистана» — tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi, mutaxassislik 07.00.02 — Отечественная история. Dushanbe, 2016.
4. Кисляков Н.А. «Некоторые материалы по этнографии таджиков верховий Кашка-Дарьи» // Труды Академии наук Таджикской ССР. Вып. СХХ. Сталинабад, 1960.
5. Кисляков Н.А. «Сайробские таджики», Советская этнография, 1974 стр.17–27.
6. Кисляков Н. А. Старинные приемы земледельческой техники и обряды, связанные с земледелием, у таджиков бассейна реки Хингоу // Советская этнография. — 1947.